

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“OSHIQNOMA” DOSTONLARI TILIDA O‘XSHATISHLARNING QO‘LLANILISHI

Sarvar RO‘ZIMBOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Urganch davlat universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292481>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq dostonchiligidagi badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lmish o‘xshatishlarning lingvistik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. “Oshiqnoma” dostonlari misolida o‘xshatishlarning turli grammatik va leksik vositalar orqali shakllanishi, ularning badiiy nutqdagi roli hamda ekspressiv-stilistik funksiyasi ochib beriladi. Shuningdek, an’anaviy va individual o‘xshatishlarning xususiyatlari, semantik siljishlar va stilistik effektlar o‘rganiladi. Maqola xalq og‘zaki ijodining poetik imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: folklor, “Oshiqnoma” dostonlari, o‘xshatish, badiiy tasvir vositalari, leksik vositalar, uslubiy vositalar, ekspressiv-stilistik funksiya.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические и стилистические особенности сравнений как одного из художественных выразительных средств узбекского народного дастанного творчества. На примере дастанов “Ашикнаме” раскрываются процессы формирования сравнений с использованием различных грамматических и лексических средств, их роль в художественной речи, а также экспрессивно-стилистическая функция. Кроме того, изучаются особенности традиционных и индивидуальных сравнений, семантические сдвиги и стилистические эффекты.

Ключевые слова: фольклор, дастаны «Ашикнаме», сравнение, художественно-изобразительные средства, лексические средства, стилистические средства, экспрессивно-стилистическая функция.

Abstract: This article analyzes the linguistic and stylistic features of similes as one of the artistic expressive means in Uzbek folk dastan literature. Using the example of the dastan “Oshiqnoma”, the study reveals the processes of forming similes through various grammatical and lexical means, their role in artistic speech, and their expressive-stylistic function. Additionally, the paper examines the characteristics of traditional and individual similes, semantic shifts, and stylistic effects.

Keywords: folklore, “Oshiqnoma” dastans, simile, artistic imagery tools, lexical means, stylistic means, expressive-stylistic function.

Xalq og‘zaki ijodining turli-tuman janrlari, ayni paytda, xalqning tasavvuri, ijtimoiy-ma’naviy tafakkuri, dunyoqarashi, urf-odatlar va an’analari, milliy-ma’naviy qadriyatlarining rining tarixi va oynasidir. Ayniqsa, dostonlarda bunday imkoniyatlar juda katta [To‘xliyev B. 17:47].

Turkiy xalqlar orasida qadimdan keng tarqalgan, obrazlar tizimi, voqelikni tasvirlash usuli jihatidan alohida guruhni tashkil etadigan, asosan ishqiy sarguzasht

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

mazmuniga ega bo‘lgan dostonlar “Oshiq” turkumiga jamlanadi. “Oshiq” dostonlari og‘zaki adabiy-tarixiy jarayonga xos turkumlashish tamoyillari asosida bir-biri bilan birlashmagan. Shu jihatdan qaraganda, ularni bir turkum sifatida qarash g‘ayri ilmiydir. Ammo ular mazmuni, obrazlari, g‘oyaviy-tematik xususiyatlari jihatidan bir-biriga g‘oyatda yaqin turadi va muayyan dostonlar guruhini tashkil etadi. Shu ma’noda ulardagi umumiy tomonlarni ochish uchun yaxlit bir dostonlar tizimi sifatida qarashni (albatta, ularning har birining mustaqilligini inkor etmagan holda) ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq [Ro‘zimboyev S. 14:3]

Folklorshunos M.Hakimov “ashig” atamasiga izoh berib shu narsani uqtiradiki, bu so‘z arab tilidagi “ishq”-“o‘t”, “olov” ma’nolari bilan bog‘liq bo‘lib, kuylovchi shaxsni emas, balki sevguvchi shaxsni anglatadi.[Xakimov I. 9:14] Shunday ekan, O‘zbekistonning Xorazm hududida tarqalgan “oshiq” turkumi dostonlarining aksariyatidagi asar bosh qahramonlari nomiga qo‘shib aytiladigan “oshiq” atamasi genetik jihatdan o‘zining dastlabki asosi - baxshi ma’nosiga borib taqaladi. Chunki ulardagi bosh qahramon siymosida kuch-qudratga ega bo‘lgan kurashuvchi qahramon emas, balki baxshi, oshiq tarzidagi kuylovchi lirik qahramon gavdalanadi. Darhaqiqat, mazkur dostonlar o‘zlarining yaratuvchisi bilan “ashig”larning bevosita ishtirokida ro‘y bergan voqealar asosida ijod qilingan va bu asarlarning ko‘pchiligida ularning o‘zlari bosh qahramon sifatida harakat qiladilar [Akimov M. 1:7].

Shunday qilib, bu tipdagi dostonlar nomida “oshiq” atamasining ishlatilishi yoki ishlatilmasligidan qat’i nazar ularga yaxlit bir turkumni tashkil etuvchi dostonlar deb qarash mumkin. “Oshiq” turkumini tashkil etuvchi dostonlar xususida o‘zbek folklorshunoslaridan: H.T.Zarifov, M.S.Saidov, M.Murodovlarning ishlarida qimmatli mulohazalar bildirilgan. Biroq mazkur dostonlar hozirgacha yaxlit holda, to‘laligicha o‘rganilmagan[Ro‘zimboyev S. 14:6].

Biz so‘z yuritayotgan dostonlar haqida boshqa turkiy xalqlar folklorshunosligida bir muncha ishlar amalga oshirilgan. Ozarbayjon olimlaridan: M.Taxmasib, A.Nabiyev, M.Hakimov, S.Yoqubovalarning qator ishlarida “Oshiq” dostonlarining tarixiy taraqqiyoti va o‘ziga xos xususiyatlari chuqur tadqiq etilgan.

“Oshiq” dostonlarining turkman versiyalari bo‘yicha X.G.Ko‘ro‘g‘li, S.A.Qarriyev, B.A.Qarriyev, B.Mamedyazov, A.Durdiyeva, S.Gutliyeva va boshqa qator olimlarning, qoraqalpoq versiyalari haqida N.Dovqorayev, Q.Maqsatov, M.Nurmuhammedov, A.Alimovlarning ishlari diqqatga sazovor bo‘lib, ularda qimmatli fikrlar bildirilgan. Shuningdek, Moskvada nashr etilgan ayrim dostonlarga so‘z boshi

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

yozgan O.Mirbadalovning maqolalarida [Известия. 4:57-64] ham bu toifa dostonlar xususida anchagina qiziqarli fikrlarni uchratish mumkin.

Ko‘rinadiki, “Oshiq” dostonlarining har bir xalqning epik ijodida tutgan o‘rni haqida qardosh xalqlar olimlari tomonidan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Demak, Xorazm “Oshiq” dostonlari haqidagi tadqiqotlarni ham jonlantirish haqida o‘ylash payti yetib keldi.

Ushbu maqolada manba sifatida professor S.Ro‘zimboyev tomonidan nashr qilingan “Oshiqnoma” kitoblaridan foydalanildi [Ro‘zimboyev S. 13,14,15,16].

Badiiy matnda qo‘llanuvchi barcha so‘zlar tasviriy vositalar deb yuritiladi. Ana shu so‘zlar yordamida adiblar asar mazmuni va g‘oyasini kitobxonga yetkazadilar, ularda shu tasvirlanayotgan voqea-hodisaga shaxsiy munosabat uyg‘otadilar. Badiiy matnni hosil qiluvchi vositalar ikki xil bo‘ladi: 1) leksik vositalar, 2) ekspressiv-stilistik vositalar.

Leksik vositalar, ya’ni leksik qatlamlar badiiy matnni hosil qilishda faol ishtirok etadi. Ular betaraf so‘zlar, arxaizm, neologizm, dialektizm, varvarizm, vulgarizm singari so‘zlardir [Lapasov J. 6:14].

Uslubiy vositalar yoki qatlamlar ham badiiy matnlarda tasviriy vositalarni yuzaga chiqarishda faol qo‘llanadi. Uning badiiy matnlarda ishlatilishi doirasi bo‘lib, badiiy nutqda voqea-hodisalarni obrazli tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, biror narsaning xarakteri, xususiyati va ko‘rinishini qisqa hamda obrazli ifodalash uchun foydalaniladi. Tilning bunday tasviriy vositalari badiiy matnlarda ikki xil: troplar(ko‘chim) va figuralar shaklida uchraydi [Lapasov J. 6:18-19].

Biz maqolamiz doirasida uslubiy vositalardan biri sanalgan o‘xshatishlarning “Oshiqnoma” dostonlari sathida ifodalanishini tahlilga tortamiz.

O‘xshatish usuli narsa, voqea, hodisa, tushunchani ikkinchi bir shu xildagi umumiylikka ega bo‘lgan narsa, voqea, hodisa va tushunchaga qiyoslash, o‘xshatma qilish yordamida ish ko‘radi. U mumtoz adabiyotda tashbeh deb yuritilgan [Lapasov J. 6:27]

“Badiiy nutqning obrazliligini ta’minlashda eng ko‘p qo‘llanadigan badiiy tasvir vositalaridan biri o‘xshatishlardir. U ikki narsa yoki hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib beradi” [Hotamov N. 11:294]. Shu yo‘l bilan nutq predmetini baholaydi.

Boshqacha aytganda, o‘xshatish – stilistik vosita bo‘lib, predmetlar, voqea – hodisalar, holatlar, harakatlar, jonzotlarni ularning to‘la yoki muayyan bo‘laklari va

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

sifatlarini o‘ziga teng o‘xshash juftliklari bilan birgalikda namoyon qiladigan tasvir usulidir. Har qanday o‘xshatish uchta element – o‘xshatish obyekti, o‘xshatish obrazi va o‘xshatish belgisidan tashkil topadi [Selivanov F.M. 8:106-107].

Dostonlarda stilistik vositalarning ushbu turining qo‘llanilishi juda faol bo‘lib, rang – barang holatlarda o‘zini namoyon qiladi.

O‘xshatishlar nutqda qo‘llanish e‘tibori bilan an‘anaviy va individual o‘xshatishlarga bo‘linadi. An‘anaviy o‘xshatishlar umumxalq o‘xshatishlari bo‘lib, badiiy asar tarkibiga o‘zgarmagan holda olib kiriladi. Individual o‘xshatishlar o‘zlarining originalligi, emotsionalligi, ekspressivligi bilan ajralib turadi [Mukarramov M. 7:27-28]. Tilshunoslarning ta’kidlashicha, o‘xshatishlar tizimida so‘zlar ma’lum semantik siljishga uchraydi, ayrim holatlarda uning nominativ ma’nosi tasavvurlar uyg‘unlashuvi asosida murakkablashuvi kuzatilsa, boshqa holatlarda so‘z nominativ ma’nosining neytrallashuvi va uning tasavvurlar uyg‘unlashuvi natijasida emotsional – ekspressiv ma’nolar bilan almashuvi ro‘y beradi [Blagov N.G. 2:109].

H.Shamsiddinovning ko‘rsatishicha, o‘xshatish obyektidagi belgiga nisbatan o‘xshatish obrazidagi belgi darajaviy jihatdan yuqori bo‘lishi o‘xshatishning samarali ifodaviylikka ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, o‘xshatish obrazi sifatida tanlangan predmetning ijtimoiy ongda salbiy yoki ijobiy baholanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi [Shamsiddinov X. 12:12-13].

Bu borada D.Xudoyberganovanning o‘xshatishning semantik va stilistik tahliliga bag‘ishlangan ishini qayd qilib o‘tish lozim. Ushbu ishda o‘xshatishning uslubiy xususiyatlari bilan ma’noviy aloqasi, ularda ochiqlik va yashirinlik, inversiya, o‘xshatish semantik va stilistik tahliliga bag‘ishlangan masalalar ham originallik kasb etadi. Shuningdek, o‘xshatishning uslubiy xususiyatlari bilan ma’noviy aloqasi, ularda ochiqlik va yashirinlik, inversiya, o‘xshatish komponentlarining o‘rinlashuvi masalalari yoritib berilgan [Xudayberganova D.S. 10:22].

Mumtoz poetikada bu vosita tashbeh deb yuritiladi. Adabiyotshunos olim Y.Is’hoqov tashbehga arab va fors adabiyotida katta ahamiyat berilganini ta’kidlab, uning o‘zbek she’riyati materiallari asosida kam o‘rganilganligini qayd qilib, uning to‘qqiz turini ko‘rsatib o‘tadi [Is’hoqov Y. 5:85-86].

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida ishlatilgan o‘xshatishlar tadqiq qilgan M.Yoqubbekova uning qirqdan oshiq turi mavjudligini ta’kidlaydi [Yoqubbekova M. 3:35].

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Darhaqiqat, o‘xshatishlar hayotiy hodisalarning aksariyatini qiyosiy obekt sifatida tanlab, rang-barang tarzda ro‘yobga chiqadi. O‘xshatishni hosil qiluvchi vositalar ikki xil bo‘ladi: a) leksik vositalar; b) grammatik vositalar.

Dostonlar tilida leksik vositalar ham, grammatik vositalar ham faol xizmat qilgan bo‘lib, quyida ularni batafsil tahlil qilib o‘tamiz.

Tadqiqot obektimizda leksik vositalar sifatida quyidagi so‘zlar xizmat qilib, o‘xshatishni hosil qilishda yordam bergan:

1) “yanglig‘” yordamida:

*To ‘ti **yanglig‘** shirin-shakar so ‘zlag ‘on,*

Bir-bir tavsifindin xabar berayin. [Oshiqnoma. 13:126]

Ko ‘zlarim boqmasun emdi sog ‘u so ‘l,

*G ‘uncha **yanglig‘** ul anordin xabar ber. [Oshiqnoma. 13:129]*

2) “kabi” yordamida:

*Misli Rustam **kabi** sohibqironim,*

Borg ‘il, bolam, emdi qalmiq yurtina. [Oshiqnoma. 13:187]

*Bir g ‘aribi shikastai nochoram, Qumri **kabi** hasratingda man zoram,*

*Kecha bo ‘lsa yulduz **kabi** bedoram, Yo ‘ldoshimni mahiliqo aylagil.*

[Oshiqnoma. 13:286]

3) “qadar” yordamida:

Bu vosita dostonlarning nasriy qismida qo‘llanilgan: *Bular bir-birlariga jonlarini fido ayladilar, barakallo, joning shu **qadar** shirinmi, dedi. [Oshiqnoma. 16:112]*

*Xotinlar odam farzandi bu **qadar** zebo bo ‘lurmi, bu farishtadan ham chiroyliku, dedilar. [Oshiqnoma. 16:143]*

4) “misoli” yordamida:

***Misoli** o ‘xshatdim cho ‘lda marola,*

Olma zanahtonli yuzi kularli. [Oshiqnoma. 13:37]

*Lablarining shirindir **misoli** kavsar,*

Oq yuzing ko ‘rmakka ko ‘p havasim bor. [Oshiqnoma. 13:75]

*Ko ‘rsa bir bachcha **misoli** o ‘n to ‘rt kechalik oydek, cho ‘ridin bo ‘lg ‘ang ‘a o ‘xshamas. [Oshiqnoma. 13:176]*

5) “o‘xshagan”, “o‘xshash”, “o‘xshar”, “o‘xshatib”, “o‘xshab”, “o‘xshaydi” yordamida:

*Bog ‘i eramga **o‘xshagan**,*

Gulstun joylari bordur. [Oshiqnoma. 13:280]

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Xolis sango o‘xshashlari,

Saodatli piri bordur. [Oshiqnoma. 13:295]

Vazirbacha aydi: ajab jonivor, vujudi yumshoqlikda odamg‘a o‘xshar.

O‘lturg‘onlar aydilar: Chin Mochinning nozaninlariga o‘xshar. Shahzodalar aydilar: Xitoyi Xo‘tanning ma‘shuqlarig‘a o‘xshar. [Oshiqnoma. 13:124]

Bu husningga moyil bo‘lib turmisham,

O‘xshatdim ko‘zlaring humoya bo‘yla. [Oshiqnoma. 13:45]

Sayodxonning husni qish ochilgan ra‘noga o‘xshab, Salbiniyozning husni o‘n to‘rt kechalik oyga o‘xshab turdilar. [Oshiqnoma. 13:85]

Yarashadur sevar yorim elingiz,

Nazar qilsam ajab joyga o‘xshaydur. [Oshiqnoma. 13:239]

6) “xuddi”, “go‘yo”, “go‘yoki” so‘zlari o‘xshatish asosi bo‘lib kelgan so‘zdan oldin keladi: *Kampirning bag‘ri ezilib, dutor chalishing xuddi o‘g‘lim G‘aribjonning dutor chalishiga o‘xshar ekan. [Oshiqnoma. 15:23]*

Qayd etish joizki, “xuddi” o‘xshatish vositasi dostonlar tilida “xut”, “top” dialektizmlari bilan ham ifodalanganining guvohi bo‘ldik. Masalan: - *Buldur qassobning Avazxon degan bir xushsurat o‘g‘li bor deb eshitar edim shu san bo‘lma? - Xut o‘zi, og‘a. [Oshiqnoma. 15:236]*

-Nozanin dedingmu? -Hova, top o‘zi. [Oshiqnoma. 15:95]

Andin so‘ng Tukli Aziz aydi: ey bolam, har na gunohing bo‘lsa o‘tdim, deb ancha yig‘ladikim, go‘yo arshi kursi titradi. [Oshiqnoma. 13:209]

Ko‘rmaguncha bo‘lmas sabru qarorim,

Go‘yo oshiqlikdin faryod ayladi. [Oshiqnoma. 13:100]

Xudoyo san bor qilg‘on go‘yoki chaman gulman,

Kofirning qafasida zindondagi bulbulman, [Oshiqnoma. 13:242]

So‘zlari jon olur ko‘zi xovari,

Go‘yoki bir sohibqirona mangzar. [Oshiqnoma. 13:250]

O‘xshatish grammatik vositalar orqali shakllantirilganda maxsus qo‘shimchalar yordamida yuzaga keladi. Ular quyidagilar:

1) *-dek, -day, -din, -dayin* qo‘shimchalari yordamida:

Ibrohimdek tashlag‘il, o‘tg‘a ul nora mani,

Ismoildek qurbon qil, kuyinda chora mani,

Zulayhodek, Yusufdek, qoldim zindon ichinda. [Oshiqnoma. 13:104]

Alar ham g‘alton urdi, bir pari bo‘ldi, o‘n to‘rt kechalik oydek, [Oshiqnoma. 13:105]

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Yetti yildir qafas ichra man g‘arib,

O‘ltirurman qahraboday sarg‘ayib, [Oshiqnoma. 13:291]

Ayturkim, hech jahon-olamda manday xushro‘y yo‘qturur, der. [Oshiqnoma. 13:125]

Xiromondin judo bo‘lib, shundin parizoddan ayrildik, endi qalandar bo‘lurmiz, deb qalandar bo‘ldilar. [Oshiqnoma. 14:261]

Majnundayin cho‘ldin-cho‘lg‘a kezaram,

Chiqib haryon cheksam nola, oh emdi. [Oshiqnoma. 13:11]

Yusufdayin solma yana zindona,

Sayyodxon, Hamroni sanga topshirdim. [Oshiqnoma. 13:31]

2) *-cha, -siga* qo‘shimchalari yordamida:

Lablaringda boldin o‘zga ob o‘lmas,

Valloh, bu husningcha mohi tob o‘lmas, [Oshiqnoma. 13:37]

-Ey Hamro, Salbiniyoz yoring bizcha bormi?,- dedi. [Oshiqnoma. 13:79]

Oshiq-Ahmadni... chalqonchasiga yotqizdi.[Oshiqnoma. 16:214]

3) *-ona, -larcha* qo‘shimchlari yordamida:

Sir aytushqon, yoru do‘stum, ulfatim,

May ichib mastona quron suhbatim. [Oshiqnoma. 13:150]

Yoshlik etma, qo‘zim, bo‘lg‘il mardona,

Qochma qo‘zim, bu dam devni o‘ldirg‘il. [Oshiqnoma. 13:207]

Yuzing ko‘rmay g‘oyibona yor edim,

Shukr ollo yuzing ko‘rdim parizod. [Oshiqnoma. 13:253]

Lekin Zulayho tushida ko‘rgan yigitni telbalarcha sevardi. [Oshiqnoma. 16:133]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalq dostonlarida o‘xshatishning qo‘llanilishi matnning badiiy jozibasini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu uslubiy vosita nafaqat doston ijrochisining mahoratini belgilovchi mezon, balki tinglovchilarning badiiy-estetik didi va dunyoqarashining yuksakligini ifodalovchi omil hamdir. Doston leksikasining boyligi, tasviriy vositalarining rang-barangligi va semantik imkoniyatlarining kengligi ularning til tizimida estetik funksiyani bajaruvchi omillar bilan uyg‘unlashgan holda aks etadi. Bu esa doston tilining o‘ziga xos poetik tizimini shakllantirish bilan birga, ularning ta’sirchanligini, obrazlilik darajasini va ifoda kuchini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois xalq dostonlarida qo‘llanilgan o‘xshatishlar doston poetikasining ajralmas qismi bo‘lib, ularning badiiy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralishi lozim. Zero, har qanday badiiy asar, jumladan, dostonlarning badiiyligi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

xalqning ma'naviy, badiiy, estetik ehtiyojini qondirishga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Акимов М. Художественные особенности героических любовных дастанов Азербайджана, Баку, 1986.
2. Благов Н.Г. Семантико-стилистический анализ научно-технических терминов в художественной речи. // Вестник ЛГУ №2, История, язык, литература, вып.1, 1976.
3. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Т.: Фан, 2005.
4. Известия А.Н Туркмении, серия ОН, №1, Ашхабад, 1961.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги, Т.: Zarqalam, 2006.
6. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. «Ўқитувчи» нашриёти, 1995.
7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Т., «Фан», 1976.
8. Селиванов Ф.М. Сравнение в былинах. // Фольклор как искусство слова, МГУ, 1975.
9. Хакимов И. Азарбайжан ашыг адебияты, Баку, 1983.
10. Худайберганава Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. ...канд.филол.наук. –Ташкент, 1989.
11. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча – ўзбекча изоҳли луати. Т., «Ўқитувчи», 1979.
12. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи. АКД, Т., 1984.
13. Рўзимбоев С. Ошиқнома. I жилд. Урганч. 2005.
14. Рўзимбоев С. Ошиқнома. II жилд. Урганч. 2005.
15. Рўзимбоев С. Ошиқнома. IV жилд. Урганч. 2009.
16. Рўзимбоев С. Ошиқнома. V жилд. Урганч. 2011.
17. То'хлиев В. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / В.То'хлиев [va boshq.], – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.